

**NOGIRONLIGI BOR INSONLAR BILAN MULOQOT MADANIYATI VA AXLOQIY
TAMOYILLAR**

Mukimova Xamidaxon

2-Farg'ona tibbiyot kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola imkoniyati cheklangan insonlarning XXI asr jamiyatidagi o'rni va shuning bilan birligida ular bilan muloqot madaniyati va axloqiy tamoyil me'yorlarini o'z ichiga qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *Imkoniyati cheklangan insonlar, huquqiy tamoyillar, muloqot, madaniyat.*

Tenglik barcha insoniy huquqlarning asosidir. Barcha diniy ta'limotlar ham insonlarning teng huquqli ekanini, boy yoki kambag'al, oq yoki qora, sog'lom yoki nuqsonli singari tengsizlik yo'q ekanini ta'kidlaydi va targ'ib qiladi. Shunga qaramasdan turli mintaqa jamiyatining ba'zi insonlari orasida nogironligi bor insonlarga nisbatan kamsitish yoki mensimaslik holatlari uchrab turishi afsuski bor gap.

Bugungi kun butunjahon nogironlik hisobotiga ko'ra, qaysidir shakldagi nogironlikka ega bo'lgan insonlar dunyo aholisining 15 foizini tashkil etadi. Shu ko'rsatkichning 2 yoki 3 foizini O'zbekiston aholisi o'rtasida qayd etish mumkin. Yurtimizdagagi imkoniyati cheklangan shaxslarning huquqlari qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlardan teng ravishda foydalanishi —Nogiron shaxslarning huquqlari to'g'risida||gi qonunning asosiy tarkibiga kiritilgandir. Davlat imkoniyati cheklangan insonlarni o'z himoyasiga olarkan, ularning obro'yiga putur yetkazish va kamsitishni qoralab, ularni jamiyat va davlat hayotiga jalb etishi ham yuqorida qonunda ko'zda tutilib o'tilgan. Ammo, bugungi kunda ham ular uchun yaratilgan sharoitlar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham ko'zga tashlanib turadi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida ham nogironlar masalasida bir qancha muammolarga duch kelinadi. Jumladan, Toshkent shahrining o'zida 70 ming nogiron va yana 300 ming keksa odam borligiga qaramay, binolar hamda ijtimoiy infrotuzilmalarning 85 foizi ular foydalanishi uchun moslashtirilmagan.

Nogironligi bor insonlar bilan suhbat o'tkazilganda, ularning ko'pchiligi qashshoq holda qolib ketayotganliglari aytilgan. Ularga nisbatan muloqot madaniyat va axloq tamoyillari borasida so'g'lom yo'lovchilar bilan suhbat o'tkazilgan chog'da esa ularning kam qismi rahmi kelib yordam berishini, ma'lum bir qism esa ularga qarab o'z sog'lig'i uchun shukur qilib ketishini aytib o'tgan. Shu o'rinda Hindiston

filmi ijodkorlari tomonidan suratga olinga —Zulmat filmi yodimga tushdi. Unda Mishel ismli qiz aristokratik oila a'zosi bo'lib, eshitish va ko'rish qobilyatini yo'qotadi. Agar uning hayotiga Debraj Sahay ismli ustoz kirib kelmaganida, u butun hayotini

zulmatda o'tkazardi. Uning yordamida Mishel nafaqat odamlar bilan muloqot qilishni o'rganadi, balki universitetni ham tamomlaydi. So'ngra Debraj o'z xotirasini yo'qtoganda, uni hech qachon unutmaslikka va'da bergen Mishel, ustozining xotiriga xotiralarini eslatishga harakat qilishi eng ta'sirli yakunga aylangan. Aytmoqchiman-ki, mana shu jamiyatga ham ustoz Debrajdek insonlar kerak. Lui Brayl singari Brayl alifbosini yaratib, ko'zi ojizlar uchun katta imkoniy yaxshilik qilmang mayli, shunchaki jismoniy majruh insonlarni mushkul ahvolda ko'rganingizda oldiga boring, yordam bering, hol-ahvol so'rang, lekin also unga achinib qaramang. O'zingizning qilgan yaxshilingizdan g'ururlanib riyoga ketmang. Muloqot madaniyatiga rioya qiling. Uning ko'ngliga tegadigan savollar bilan qiynamang. Qachondan beri ko'rsiz? Nogironligingiz tug'mami? Singari savollarni va mana shu savollar ufurib turgan nigohingizni o'zgartiring. Tengquringiz bo'lsa do'stim deb, yoshi ulug'roq bo'lsa onajon deb, kichikroq bo'lsa singlim yoki ukam deb murojaat qiling. Sizga qanday yordam bera olaman deng. Qarshingizdagi insonni jismoniy majruhligini unutib suhbat quring.

Nogironligi bor shaxslar bilan muloqot madaniyatini AQSHning Hammaboplif milliy markazi mutaxassisni Karen Mayyer ishlab chiqqan tamoyillar asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, u holda quydagi muloqot me'yorlarga rioya etmog'imiz darkor.

Avvalo, nogironligi bor kishi bilan muloqot qilganingizda uning kuzatuvchisiga yoki surdo tarjimonga emas, balki bevosita o'ziga murojaat qiling. Nogironligi bor kishi bilan tanishtirishganda uning qo'lini siqib qo'ying. Protez qo'ldan foydalanadiganlarning o'ng yoki chap qo'lni siqib qo'yishingiz mumkin. Yaxshi ko'rmaydigan odam bilan uchrashganda o'zingizni va siz bilan birga kelgan kishilarni tanishtiring. Agar siz bir guruh odamlar bilan muloqot qilayotgan bo'lsangiz, har safar savolningiz yoki fikrlaringiz aynan kimga qaratilganini aytib o'tishni unutmang. Agar siz yordam taklif qilsangiz, uni qabul qilishguncha kutib turing, so'ngra qanday yo'l tutsangiz to'g'ri bo'lishini so'rab oling. Katta yoshlilar bilan xuddi kattalardek muomala qiling. Davradagi boshqa kishilarga ismi sharifini aytib murojaat qilayotgan bo'lsangiz, nogironligi bor kishi bilan ham xuddi shunday yo'l tuting. Nogironlik aravachasidan foydalanayotgan kishilarga alohida e'tibor qaratmang, ularning boshiga yoki yelkasiga qo'lingizni qo'y mang, ismlarini kichraytirib aytmang. Kimningdir nogironlik aravachachsiga suyanib turish aslida uning egasiga suyanib turishni bildiradi, bu esa uning asabiga tegishi mumkin. Aravacha, o'rindiq undan foydalanayotgan kishining daxlsiz hududidir. Muloqotda muammosi bor kishi bilan gaplashganda uni diqqat bilan eshititing. Sabrli bo'ling, u

gapini tugatishini kuting. Uning gaplarini tuzatishga yoki uning o'rniga gapireshga urinmang. Zarurat bo'lganda javobi ham qisqa yoki bosh irg'ab qo'yish yoxud biror bir harakat bilan qaytariladigan savollarni bering. Agar suhbatdoshingizni tushunmagan bo'lsangiz, o'zingizni tushungandek qilib ko'rsatmang. Agar siz nogironlik aravachasi yoki qo'lтиqtayoqdan foydalanayotgan kishi bilan suhbatlashayotgan bo'lsangiz, ko'zingiz uning ko'ziga tushib turadigan tarzda joylashing, shunda muloqotingiz oson

kechadi. Yaxshi eshitmaydigan kishining diqqatini tortish uchun qo'l silkib qo'ying, yoki yelkasiga ohista turting.

Imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan axloqiy me'yorga rioya qilmoq to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, jismoniy qobiliyati cheklangan inson bilan oramizdag'i jismoniy xilma-xillikka e'tiborda turish noo'rin hisoblanadi. Siz qarshingizdag'i inson qadr-qiyomatini, shaxsiy daxlsizligini va siz bilan teng huquqli ekanini yodda tuting. Ularga zarar qilmang. Ya'nikim, siz bilan suhbatdan so'ng nogironligi bor insonning o'z-o'ziga hurmati pasaymasin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham 2006- yilda qabul qilgan —Nogironlar huquqi to'g'risidagi konvensiyasi||da tenglik muammosini birinchi o'ringa qo'yib, uni ustuvor global tadqiqot masalasiga ko'tardi. Bu konvensiya madaniyatlararo jismoniy faoliyati cheklangan insonlarga bo'lgan axloqiy qarashlar orasidagi tafovutni bartaraf etish uchun zaruriyat bo'lgan. Xususan, bu konvensiya uchun millatlararo tadqiqot o'tkazilib, nogironlarga nisbatan muloqat madaniyatining hamda axloqiy tamoillarning neytral va zararsiz shakllari tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan nogironligi bor insonlar huquqi konvensiya doirasida jamlangan bo'lsa ham, undagi ayrim jihatlar hali ham yechimini topmagan muammo sifatida qolib ketmoqda. Jumladan, nogiron kishilarni ish bilan ta'minlash darajasi bilan bir qatorda, sog'liqni saqlash borasida ortiqcha harajatlar yo'qotish sababli turmush darajalari pastligicha qolmoqda.

Tafakkur qilingki, so'glom bo'lishingizga qaramay necha bor dunyo ko'zingizga qorong'u bo'lib ko'rинган. Shu lahzalarda umrining achchiq shirinini ojiz ko'zlari yoinki, gapirolmaydigan tillari bilan tortayotganlar insonlar ko'z oldingizga kelganmi hech? Ular qanday irodali-a! Tahsinga sazovar sabri va bardoshi bor ularning. Demakki, ularga kamsitish bilan qarashni bas qilaylik, muloqat madaniyatini go'zal o'rnataylik. Ko'ngli Allohga yaqin bu insonlarga do'stlik qo'lini cho'zsak yanayam yaxshi bo'ladi. Islom inson qadrini hamma vaqt ulug'lashni buyurgan va uning sharafini oliy darajaga ko'targan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti —Nogironlar huquqlari bo'yicha konvensiya||si.
2. Inson huquqlari umumjahon Dekloratsiyasi
3. London School of Hygiene and Tropical Medicine —An articled on ethical considerations in the study and asdvocacy of disability||.
4. Nargis Qosimova, Oybek Isakov. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida nogironlik mavzusining yoritilishi.